

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA‘LIMI
VAZIRLIGI**

**FARG‘ONA VILOYATI
XALQ TA‘LIMI XODIMLARINI
QAYTA TAYYORLASH VA ULRNING MALAKASINI
OSHIRISH INSTITUTI**

**“BOSHLANG‘ICH SINFLARDA
MEHNAT DARSINI TO‘GARAKLARINI
TASHKIL ETISH”**

(Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun uslubiy ko‘rsatma)

Farg‘ona 2015

Tuzuvchilar :

Akbarova Feruzaxon Adxamovna FVXTXQTMOI
Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim kafedrası o'qituvchisi,
Manzuraxon Turdiqulova Quva tumani 1-maktab o'qituvchisi

Taqrizchilar:

M. Xalloqova - FVXTXQTMOI
Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim
kafedrası katta o'qituvchisi.

D.Yo'ldasheva – FarDU “Boshlang'ich ta'lim” kafedrası katta
o'qituvchisi, filologiya fanlari nomzodi.

Uslubiy ko'rsatma umumiy o'rta ta'lim maktablarining mehnat darslarida va to'garak mashg'ulotlar jarayonlari uchun yordamchi manbaa sifatida yaratilgan bo'lib, o'quvchilar jamoasida va ularning kasbga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirishda ota-onalar va pedagoglar uchun mashg'ulotlar jamlangan.

Mazkur uslubiy ko'rsatma umumiy o'rta ta'lim maktablarining mehnat to'garaklari bo'yicha faoliyat yuritayotgan pedagoglar va oilada o'rganuvchi, qiziquvchilar uchun mo'ljallangan

**USHBU USLUBIY TAVSIYANOMA FARG'ONA VILOYATI
XALQ TA'LIMI XODIMLARINI QAYTA TAYYORLASH VA
ULRNING MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTINING
_____-SONLI YIG'ILISHI QARORIGA ASOSAN
TASDIQLANDI**

Munchoqlardan gul tikish

Maqsad: O'quvchilarni biser, munchoqlardan gul tikishga o'rgatish


Jihoz: munchoqlar, iplar, mato

Mashg'ulotning borishi

1. Tashkiliy qism. Mashg'ulotga tayyorlanish

2. Amaliy ish

Avval gul tikmoqchi bo'lgan gazlama tanlab olinadi, so'ng matoga gul chiziladi. So'ng ninaga ip o'tkazib, matoning orqa tarafidan o'tkazib olinadi. Nina yordamida munchoqlar chiziladi. Ipnining oxiriga munchoqlar yetkaziladi va yana matoga sanchiladi.



Mashina yasash

Maqsad: Gugurt qutilaridan mashina modelini yasashni o'rgatish


Jihoz: Gugurt qutilari, yelim, qog'oz, qaychi

Mashg'ulotning borishi

1. Tashkiliy qism. Mashg'ulotga tayyorlanish

2. Mashg'ulotning borishi

Gugurt qutilari tanlab olinadi. Ustma-ust qo'yib yelimlanadi. Mashina uchun g'ildirak kartondan tayyorlanadi. Mashina chiroqlari rangli qog'ozdan yasaladi. Mashinani xohlagan rangda yasash mumkin.



Nina uchun yostiqcha tikish

Maqsad: Nina uchun yostiqcha tikishni o'rgatish.

Jihoz: Nina, ip, karton, qog'oz, paxta, tasmalar

Mashg'ulotning borishi

1. Mashg'ulotga tayyorlanish

2. Amaliy ish

Karton qog'ozga yulduzchaning tasviri tushirilib qirqib olinadi. Qizil matodan ham xuddi shunday shakl tayyorlanadi. So'ng bir-biriga tepchima chok bilan tikiladi. Tikilmagan bir chetidan ichiga paxta solinadi. Oxirida shu cheti ham tikib qo'yiladi. Endi rangli tasmalarni chetiga tikib chiqamiz, ilish uchun bog'ich tikiladi. Yostiqcha tayyor.



Choynak uchun taglik tikish

Maqsad: Qirqimlardan oshxona uchun choynak taglik tikishga o'rgatish. Bolalarni tejamkorlikka o'rgatish

Jihoz: Qirqim matolar, qaychi, ip, nina, tasmalar

Darsning borishi

1. Tayyorgarlik

2. Amaliy mashg'ulot

Taglik uchun mato tanlanadi. Uni kerakli shaklda kesib olamiz. Tasmalardan mato rangiga mos xili tanlanadi. So'ng kesilgan andoza chetlari tasmalar bilan bezatiladi. Choynak tagligini qalinroq matodan tayyorlash kerak. Shunda u chiroyli chiqadi. Choynak taglikni doira, to'rtburchak, yurakcha shaklida tayyorlasa bo'ladi.



Ro`molcha tikish

Maqsad: Bolalarga chok turlari haqida bilim berish, ro`molcha tikishni o`rgatish.


Jihoz: Qaychi, ip, nina, gazlamalar

Darsning borishi

1. Tayyorgarlik

2. Amaliy mashg`ulot

Ro`molcha uchun mato tanlanadi. Uni kerakli shaklda kesib olamiz. Mato rangiga mos rangli iplar tanlanadi. So`ng ro`molcha chetlar iturli choklar bilan bezatiladi. Ro`molchaga zanjir chok, suv chok va turlichoklar gullar tikish mumkin. Shunda u chiroyli chiqadi. Ro`molchani to`rtburchak, yurakcha shaklida tayyorlasa bo`ladi.



Ikibane tayyorlash

Maqsad: Gulli gazlamalar, qaychi, yelim, qog‘ozdan guldasta yasashni o‘rgatish.

Jihoz: Gazlama, qaychi, yelim

Mashg‘ulotning borishi

1. Tashkiliy qism. Ish o‘rnini tayyorlash

2. Amaliy ish

Gulli matodan gullar qirqib olinadi. Qog‘ozga chiroyli qilib joylanadi. So‘ng yelim bilan yopishtiriladi. Tayyor guldasta ramkaga solinib qo‘yiladi.



Archa uchun o‘yinchoqlar

Maqsad: Yangi yil archasi uchun o‘yinchoqlar tayyorlash.
Bolalarni tejamkorlikva ijodkorlikka o‘rgatish

Jihoz: Rangli qog‘ozlar, qaychi, ip.

Mashg‘ulotning borishi

1. Ish joyini tayyorlash

2. Amaliy mashg‘ulot

Bolalarga qog‘ozni buklash, qirqish orqali qor parchasi, fonar, turli o‘yinchoqlar yasash o‘rgatiladi. Qog‘ozdan tejamli foydalanish o‘rgatiladi.



Archa

Maqsad: Rangli qog‘ozlardan applikasiya usulida archa shaklini yasash. Bolalarni badiiy ijodkorlikka o‘rgatish.

Jihoz: Rangli qog‘ozlar, qaychi, yelim qalam.

Mashg‘ulotning borishi

1. Ish o‘rnini tayyorlash

2. Amaliy ish

Yashil rangli qog‘ozdan 2 ta archa shakli kesib olinadi. Birinchi qismi shokila qilib kesiladi. So‘ng ustma-ust yopishtiriladi. Archa uchun soch ham shunday tayyorlanadi. Ko‘z, lenta, og‘iz qirqib yopishtiriladi.



Qog'ozdan pirpirak tayyorlash

Maqsad: Qog'ozni qirg'ish va buklash usuli bilan shamol pirpiragini yasash


Jihoz: Rangli qog'ozlar, qaychi, nina, cho'plar

Mashg'ulotning borishi

1. Tashkiliy qism. Ish joyini tayyorlash

2. Amaliy ish

Rangli qog'ozdan kvadrat shaklini qirqib olamiz. So'ng burchaklardan markazga qarab qirqamiz. Kesilgan burchaklar markazga qarab qaytariladi va nina bilan cho'pga birlashtiriladi. Pirpirak tayyor.



Qog'ozni buklash orqali turli hayvonlar shaklini yasash

Maqsad: Qog'ozni buklash turli hayvonlar shaklini yasashni o'rgatish. Bolalarni ijodkorlikka undash.


Jihoz: Rangli qog'ozlar, qaychi.

Mashg'ulotning borishi

1. Tashkiliy qism. Tayyorlanish

2. Amaliy mashg'ulot

Yasalishi kerak bo'lgan hayvonning rangi, alohida belgilarihaqida tushuncha berish. Rangli qog'ozdan keraklisini ajratish. Kvadrat shaklini yasash. Kerakli belgilarni qo'yish.



Patlardan turli shakllar yasash.

Maqsad: Bolalarga parranda patlaridan turlo shakllar yasashni o'rgatish. Parrandalar haqidagi tasavvurlarni boyitish.

Jihoz: Patlar, yelim bo'yoqlar.

Mashg'ulotning borishi

1. Ish o'rnini tayyorlash

2. Amaliy mashg'ulot

Turli parranda patlari tanlab olish. Yasash kerak bo'lgan hayvon shakli yoki naqshni chizib olish. Patlarni yelim bilan yopishtirish. Kerakli joylarni bo'yash.



Urugʻlardan shakllar va naqshlar tayyorlash.

Maqsad: Tarvuz, qovun, qovoq, gul urugʻlaridan naqsh va shakllar yasash.

Jihoz: Qogʻoz, yelim, urugʻlar.

Mashgʻulotning borishi

1. Tashkiliy qism. Tayyorlanish

2. Mashgʻulot

Qovoq, tarvuz, qovun urugʻlaridan kvadrat, toʻrtburchak shaklida naqshlar ishlash mumkin. Buning uchun urugʻlar yuvib tozalanadi, quritiladi. Soʻng yelim bilan qogʻozga yopishtiriladi. Tayyor boʻlgan naqsh yoki shakl boʻyoq bilan boʻyaladi, quritiladi. Uni ramkaga solib sovgʻa qilish ham mumkin.



Barglardan shakllar yasash.

Maqsad: O'quvchilarni ijodkorlikka o'rgatish, bilimlarini oshirish.

Jihoz: Barglar, qaychi, yelim.

Darsning borishi

1. Tashkiliy qism. Darsga tayyorlanish. Ish stolini, asboblarni tayyorlash.

2. Mashg'ulotning borishi

Tabiat-ona. U juda ko'p mo'jizalar yaratadi. Daraxtlarning barglaridan turli shakl va naqshlar yasash mumkin. Buning uchun barglar tanlanadi. Kerakli qismi qirqib olinadi. So'ng qog'ozga yelim bilan yopishtiriladi.

3. Amaliy ish



Yong‘oq po‘choqlaridan narsalar tayyorlash.

Maqsad: Yong‘oq, shaftoli, o‘rik danaklaridan hayvonlar shaklini yasash.

Jihoz: Danaklar, plastilin, qog‘oz, yelim

Mashg‘ulotning borishi

1. Tashkiliy qism. Tayyorlanish.

2. Amaliy ish

Yong‘oq, shaftoli, o‘rik danaklari yuvib tozalanadi. Ikki qismga ajratiladi. Yasalishi kerak bo‘lgan shakl rasmi chizib olinadi. Shunga qarab danak bo‘laklari plastilin bilan yopishtiriladi. Kerakli qismlar ranglar bilan bo‘yaladi. Natijada baliq, jo‘ja, odam, toshbaqa hosil bo‘ladi.







